



TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

2024-YIL YANVAR-IYUL
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Sanoat statistikasi
bo'limi
Tel.: 71-202-86-66

Toshkent viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2024- yil yanvar- iyul)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2024- yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 70678,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,9 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 83,3 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 58 849,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C - Ishlab chiqaradigan sanoat D - Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E - Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish.


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* %da



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoatining – 7,6 %ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 10,0 %ga o'sganligi ta'sir qildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Togʻ-kon sanoati



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,8 trln. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,9 %ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-iyuloylarida, %da)




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar- iyul	2024- yil yanvar- iyul	Farqi +/-
Koʻmir, <i>ming t.</i>	2924,3	3146,5	222,2
Chaqiq tosh, <i>ming t.</i>	222,2	245,8	23,6
Kaolin, <i>ming t.</i>	299,3	268,5	-30,7

Ishlab chiqaradigan sanoat




2024- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 58,8 trln. soʻmni yoki oʻtgan yilga nisbatan 107,6 %ni tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,
(yanvar-iyul oylada, %da)**



Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,1 %ni (2023- yilning yanvar-iyul oylarida 1,8%), oʻrta-yuqori texnologiyali – 8,6 % (8,4 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 49,6 % (49,9%) va quyi texnologiyalisi – 24,0 % (25,6 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 7,3 % (2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 133,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 38,7% (2023- yilning yanvar- iyul oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 104,0%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,0% (2023- yilning yanvar-iyuloylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,5%), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,4% (2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,7%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,7 % (2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,7 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati


2024- yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 18,9 ming tonna o'simlik yog'i (o'tgan yilning mos danriga nisbatan 2,1m), 1,5 ming tonna suyultirilgan sut (114,9 %) mahsulotining ishlab chiqarilishi o'sganligi kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da


O'simlik yog'i (tozalangan)



Pishloq va tvorog




Yumshoq bug'doy va spelta uni



Pivo




Aroq




Uzum vinosi



Sement



Paxta chigiti



Kalava ip




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar- iyul	2024- yil yanvar- iyul	Farqi +/-
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, <i>ming t.</i>	162,1	132,9	-29,2
Shakar, <i>ming t.</i>	252,0	164,3	-87,7
Paxta tolasi <i>ming t.</i>	28,2	28,9	0,7
Portlandsement, <i>ming t.</i>	1708,7	2407,0	698,3

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish holati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan pasayishi ammoniy nitrat (2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 94,0 %) mahsulotida ko‘rsatkichlari qayd etildi.



Metallurgiya sanoati (yanvar-iyul oylarida)



FHI
%da




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati ulushi 38,7 %ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 104,0 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 27375,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (yanvar-iyul oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar-iyul oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,3%ni, uning fizik hajm indeksi esa 99,6 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 2351,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




FHI
%da



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


(yanvar-iyul oylarda)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,5 %ni tashkil etgan, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 106,5 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 7401,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-iyul oylarida)




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar-iyul oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,9 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 129,6 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 2 036,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati (yanvar-iyul oylarda)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,9 %ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 104,7 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 3 458,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




FHI
%da



Kiyim ishlab chiqarish sanoati (yanvar-iyul oylarda)



FHI
%da




2024- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,9 %ni, fizik hajm indeksi esa 94,0 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 2 051,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish


(yanvar-iyul oylarda)

2024- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,4 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 97,2 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 3 121,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar-iyul oylarda)



2024- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 168,5 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 2 065,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.


**Avtotransport vositalari, treylerlar
va yarim tirkamalar ishlab chiqarish**
(yanvar-iyul oylarda)



2024- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlabchiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,3 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 133,2 %ni, ishlab chiqarish hajmi 5183,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish
(yanvar-iyul oylarda)

2024- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 121,1 %ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1 593,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash


yanvar-iyul oylarda



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,8 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (12,5 %ini) tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-iyul oylada, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 10,0 %ga oshganligi kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, (yanvar-iyul oylada, %da)




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar- iyul	2024- yil yanvar- iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	12019,3	12129,4	110,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1845,2	1959,9	114,7
Ko'mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo'lgan gaz, ming kub. m.	55093	49237	-5856,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

yanvar-iyul oylarda



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,1 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 %ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, (yanvar-iyul oylarda, %da)



Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar- iyul	2024- yil yanvar- iyul	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	34,5	40,7	6,3
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlar, mlrd.so'm	79,3	103,4	24,1

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarida 130,4 %ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-iyul oylarda

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 12,3 trln. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 17,5 %ni tashkil etdi.

Toshkent viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

2024- yilning yanvar-iyul oylarda

	Mlrd. so'm		Ulushi %da		%da		
	70 678,1		100,0		106,9		
	Toshkent viloyati						
	Mlrd. so'm	%da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	2123,3	3,0	107,7		343,1	0,5	101,1
	Nurafshon				Bo'ka		
	Mlrd. so'm	%da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	22958,0	32,5	102,4		2689,1	3,8	109,4
	Olmalik				Zangiota		
	Mlrd. so'm	%da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	3638,7	5,1	105,3		6591,6	9,3	112,3
	Angren				Qibray		
	Mlrd. so'm	%da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	4887,3	6,9	97,2		833,8	1,2	107,0
	Bekobod				Quyichirchiq		
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	2544,4	3,6	98,7		672,3	1,0	109,6
	Ohangaron				Parkent		
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	7583,0	10,7	105,6		435,2	0,6	107,1
	Chirchiq				Piskent		

	Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	654,5	0,9	105,1
	Yangiyo'l		

	Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	1137,6	1,6	102,1
	O'rta Chirchiq		

	Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	510,4	0,7	105,8
	Oqqo'rg'on		

	Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	730,8	1,0	102,6
	Chinoz		

	Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	4926,7	7,0	102,8
	Ohangaron		

	Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	1793,8	2,5	108,8
	Yuqori Chirchiq		


	Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	290,6	0,4	106,8
	Bekobod		

	Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	1886,3	2,7	108,5
	Toshkent		

	Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	1977,9	2,8	103,5
	Bo'stonliq		

	Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	1469,7	2,1	109,3
	Yangiyo'l		

**Toshkent viloyati hududlari kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, %da**




■ 2023- y. IFO

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Nurafshon (2023- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 107,7 %), Chirchiq (105,6 %) shaharlari hamda Qibray (112,3 %) tumanida sezilarli darajada oshdi.

Toshkent viloyatida jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %da

Viloyatda sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Olmaliq (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 32,5 %) hamda Bekobod (6,9 %), Chirchiq (10,7 %), Angren (5,1 %) va Ohangaron (3,6 %) shaharlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Bo'ka (0,5 %) hamda Bekobod (0,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Olmaliq (156 340,7 ming so'm), Ohangaron (61 423,9 ming so'm) va Bekobod (46 727,5 ming so'm) shaharlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (14 811,1 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish**

2024- yilning yanvar-iyul oylarda, ming so'm

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	23105,9	104,7
	2483,8	

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	37699,0	104,8
	Nurafshon	

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	2546,7	95,9
	Bo'ka	

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	156340,7	99,6
	Olmalik	

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	15661,6	106,2
	Zangiota	

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	19898,6	101,4
	Angren	

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	37502,9	111,2
	Qibray	

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	61423,9	97,1
	Ohangaron	

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	7179,4	104,2
	Quy Chirchiq	

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	46727,5	96,3
	Bekobod	

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	3762,3	107,2
	Parkent	

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	43771,2	101,6
	Chirchiq	

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	4277,9	108,3
	Piskent	

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	7639,5	96,4
	Yangiyo'l	


	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	8275,3	86,3
	O'rta Chirchiq	

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	4542,9	101,1		5011,6	96,8
	Oqqo'rg'on			Chinoz	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	44199,9	100,4		12857,9	107,0
	Ohangaron			Yuqori Chirchiq	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	1750,6	105,6		9471,0	106,1
	Bekobod			Toshkent	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	11179,0	100,5		7330,4	108,5
	Bo'stonliq			Yangiyo'l	

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 15 505,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 21,9 %ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Zangiota (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (91,6 %), Yuqori Chirchiq (65,1 %), Parkent (74,3%) tumanlarida kuzatildi.



Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Olmalik (1,8 %) va Bekobod (2,3 %) shaharlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Toshkent viloyatida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2024- yil yanvar-iyul oylarda)

Bugungi kunda viloyatda 6482 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 942 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 14,6 %) Zangiota tumaniga, 551 tasi (8,6 %) Qibray tumaniga, 550 tasi (8,7 %) Toshkent tumaniga, 409 tasi (6,3 %) Chirchiq shahriga, 327 tasi (5,1 %) Angren shahriga to'g'ri kelmoqda.



2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 811 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 97 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 11,9 %) Zangiota tumaniga, 48 tasi (5,3 %) Qibray tumaniga, 56 tasi (7,1 %) Toshkent tumaniga, 31 tasi (3,8 %) Chirchiq shahriga, 37 tasi (5,0 %) Angren shahriga to'g'ri kelmoqda.